

**A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT
MILLIY INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.28/30.12.2019.Ped.68.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI

SULTONOVA LOBAR ABDUNOSIR QIZI

**UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTAB DIREKTORLARINING
BOSHQARUV FAOLIYATINI BAHOLASH MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH
(Rahbarning boshqaruv kompetentligi ko‘rsatkichlari asosida)**

13.00.07 – Ta‘limda menejment

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Sultonova Lobar Abdunosir qizi

Umumiy o‘rta ta’lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash mexanizmlarini takomillashtirish (Rahbarning boshqaruv kompetentligi ko‘rsatkichlari asosida)..... 3

Султонова Лобар Абдуносир кизи

Совершенствование механизмов оценки управленческой деятельности директоров общеобразовательных средних школ (на основе показателей управленческой компетентности руководителя)..... 23

Sultonova Lobar Abdunasir qizi

Improvement of mechanisms for assessing the management activities of directors of secondary schools (based on indicators of managerial competence of the principal) 45

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 49

**A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT
MILLIY INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.28/30.12.2019.Ped.68.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI

SULTONOVA LOBAR ABDUNOSIR QIZI

**UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTAB DIREKTORLARINING
BOSHQARUV FAOLIYATINI BAHOLASH MEKANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH
(Rahbarning boshqaruv kompetentligi ko‘rsatkichlari asosida)**

13.00.07 – Ta‘limda menejment

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Ped4280 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.avloniy.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Karimov Farxod Erkinovich,
siyosiy fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Musayev Jahongir Payazovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Xo'jayev Alijon Atabekovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.28/30.12.2019.Ped.68.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "____" _____ kuni soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 6-uy. Tel:(+998 55) 508-06-67; e-mail: info@avloniy.uz).

Dissertatsiya bilan A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 6-uy. Tel: (+998) 55-508-06-67).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil " ____ " _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil " ____ " _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.A.Yuldashev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

I.A.Xurramov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
p.f.f.d., (PhD)

A.E.Ibraymov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), dotsent

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirish va ularning kompetentligiga qo'yiladigan umumiy talablarni klassifikatsiyalash, maktab direktorining boshqaruv faoliyatini baholashga oid ko'rsatkich va mezonlarni ishlab chiqish mexanizmlari amaliyotga keng joriy etilmoqda. Bu, o'z navbatida, jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan 2030-yilgacha xalqaro ta'lim konsepsiyasidagi "...ta'lim oluvchilarni hayotga tayyorlash, ta'lim sifatini oshirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy qilish"¹ vazifasini ro'yobga chiqarish uchun maktablarni kuchli boshqaruv faoliyatini amalga oshiradigan samarali direktorlar bilan ta'minlashning pedagogik, psixologik imkoniyatlaridan amaliyotda foydalanish bo'yicha samarali ishlarni olib borishga xizmat qiladi.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida maktab direktorlarining boshqaruv faoliyati natijadorligini ta'minlash, samarali maktab boshqaruvini amalga oshiradigan direktorlarni aniqlash mexanizmlarini ishlab chiqish, direktorning amaliy faoliyatini baholash, direktor faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini yaratish bo'yicha tizimli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, maktab direktorining faoliyatini yetakchilik uslublari nuqtai nazaridan baholash, o'quv dasturlarini rivojlantirishda maktab direktorlari faoliyatining samaradorligini aniqlash, maktabni boshqarishda shaxslararo munosabatlar, qarorlar qabul qilish jarayoni, muloqot, nazorat, xodimlarni rivojlantirish dasturlari, intizomni saqlash, maktab-jamoa munosabatlari hamda ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha direktorlarning rolini baholashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda maktab direktorlari boshqaruv faoliyatini yetakchilik standartlari va professional o'sish imkoniyatlari jihatidan baholash, ularni lavozimga tayinlashda tanlash tartiblarini ishlab chiqish, baholash markazlari tomonidan sertifikatlashning me'yoriy huquqiy asoslari yaratilmoqda. Shuningdek, "...maktab direktorlari faoliyati samaradorligini baholashning aniq mezonlari va parametrlari majmuasini yaratish"², "direktorlar bilishi va bajarishi kerak bo'lgan aniq belgilangan milliy standartlarni..."³ hamda "...ilg'or maktab direktori mezonlarini ishlab chiqish hamda ular asosida rahbar kadrlar faoliyatini baholab borish"⁴ ustuvor vazifalar etib belgilandi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini

¹ Incheon declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea), 12 p.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538 sonli "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-sonli "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz>

baholash mexanizmlarini takomillashtirishda rahbarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 11-maydagi PF-134-sonli “2022-2026 yillarda xalq ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538-sonli “Xalq ta‘limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2018-yil 5-sentabrdagi PQ-3931-sonli “Xalq ta‘limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli “Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlashda ushbu dissertatsiya natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” deb nomlangan ustuvor yo‘nalishga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda umumiy o‘rta ta‘lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish va samaradorlikni baholash bo‘yicha S.T.Turg‘unov, R.Sh.Ahmidinov, N.Q.Ahmedova, K.A.Mamatqulova, N.K.Ermetova, M.U.Ahmedov; maktab direktorining boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish va uni baholashga doir masalalar D.M.Mamatqulov, Sh.I.Nizamova, M.R.Zakirova, D.F.Yusupova, tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarida maktab direktori boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, faoliyat natijalarini baholash V.P.Toporovskiy, V.S.Lazarev, G.S.Abdrahmanov, V.I.Zvereva, T.I.Shamova, Y.A.Konarjevskiy, V.A.Slastenin, A.M.Moisev; maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholashning kvalimetrik modellari va texnologiyasi bo‘yicha A.S.Krasikov, L.I.Lutsenko, E.V.Litvinenko tomonidan tadqiqotlar o‘tkazilgan.

Xorijiy davlatlarda maktab direktorining boshqaruv faoliyatini baholash masalalari Ph.Hallinger, R.H.Heck, J.H.Stronge, K.R.Cheema, M.O.Nvogbo, J.F.Murphy, J.G.Sani hamda direktorlar faoliyatini baholash standartlari va shkalalarini ishlab chiqish bo‘yicha H.Ebmeier, R.Knoop, R.W.Common, K.Leithwood, R.Vandenbergh kabi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya

tadqiqoti A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “2021-2025-yillarda xalq ta’limi sohasida bajarilishi lozim bo‘lgan ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish bo‘yicha yo‘l xaritasi”ning “Xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish asosida milliy xususiyatlarimizni inobatga olib ta’lim muhitini yaratish talab va me‘yorlarini takomillashtirish” bandi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi umumiy o‘rta ta’lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

maktab direktorining boshqaruv faoliyatini obyektiv baholashda direktorning boshqaruv faoliyatini tashkil etish tuzilmasini aniqlashtirish;

umumiy o‘rta ta’lim maktab direktorining boshqaruv faoliyatini baholash mezonlarini TALIS xalqaro baholash dasturi talablari asosida takomillashtirishga doir takliflarni shakllantirish;

umumiy o‘rta ta’lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash mexanizmini direktorning boshqaruv kompetentligiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirish;

umumiy o‘rta ta’lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholashni hisoblash metodikasini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida umumiy o‘rta ta’lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash mexanizmlarini takomillashtirish jarayoni belgilanib, Toshkent shahri, Farg‘ona va Buxoro viloyatlari umumiy o‘rta ta’lim maktablaridan jami 260 nafar maktab direktorlari ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini umumiy o‘rta ta’lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash mexanizmlari, yondashuvlari va tamoyillari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili, kuzatish, intervyu, so‘rovnoma, test, qiyosiy tahlil, tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini obyektiv baholashda direktorning boshqaruv faoliyatini tashkil etish tuzilmasi ta’lim muassasasini boshqarishning tahlil qilish, maqsadlarni belgilash, rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish hamda tartibga solish funksiyalarini maktabda boshqaruv samaradorligini oshirish omili sifatida ifodalash asosida aniqlashtirilgan;

umumiy o‘rta ta’lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash mezonlari TALIS xalqaro baholash dasturi talablari asosida maktab missiyasini aniqlash, o‘quv jarayonini boshqarish, ijobiy ta’lim muhitini targ‘ib qilish vazifalarini aniqlashtirish hamda natijalarning shaffofligini ta’minlash asosida direktorning o‘zi va pedagogik jamoasi tomonidan baholanishini yo‘lga qo‘yish orqali takomillashtirilgan;

umumiy o‘rta ta’lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash mexanizmi direktorning boshqaruv kompetentligiga ustuvorlik berish asosida liderlik, jamoada ishlash, tahliliy, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, xodimlar

motivatsiyasini boshqarish, emotsional intellekt darajasi, boshqaruv nazariyasiga oid bilim va ko'nikmalarini baholash hamda natijalarni toifalash imkoniyatlarini kiritish orqali takomillashtirilgan;

umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholashni hisoblash metodikasi baholash mezonlarini direktorning boshqaruv faoliyatiga ta'sir etishiga ko'ra bevosita va bilvosita baholovchi mezonlarga tasniflash va natijaga erishishning murakkablik darajasiga ko'ra baholash talablarini aniq belgilash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholashga xizmat qiluvchi umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholashning takomillashtirilgan mexanizmi ishlab chiqilgan;

o'zini-o'zi baholash jarayonlarini tashkil etish asosida maktab direktorlarining uzluksiz kasbiy rivojlanishiga qaratilgan umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash mezonlari ishlab chiqilgan;

maktab direktorining yetakchilik qobiliyatlarini baholashga doir baholash vositalari umumlashtirilgan;

maktab direktorlarining hamkorlik qila olish, tahlil qilish, raqamli savodxonlik, muammoga yechim topish, to'g'ri qaror qabul qilish, tashkilotchilik va tashabbuskorlik, vaqtni boshqarish, xodimlar motivatsiyasini boshqarish ko'nikmalari menejerlik o'quv kursining "O'zini-o'zi va o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish" hamda "Inson resurslarini boshqarish" o'quv modullari tarkibidagi "Rahbarning boshqaruv va shaxsiy samaradorligini rivojlantirish yo'llari" hamda "Zamonaviy rahbar xususiyatlari" mavzulari mazmuniga singdirilgan;

umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining boshqaruv kompetentligini oshirishga xizmat qiluvchi "Maktab direktorining boshqaruv kompetensiyasi" nomli o'quv qo'llanma yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonlari ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish tamoyillari asosida olib borilganligi, qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyati tuzilmasi ta'lim muassasasini boshqarishning tahlil qilish, maqsadlarni belgilash, rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish hamda tartibga solish funksiyalari mohiyatini ifodalash orqali aniqlashtirilganligi, maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash mezonlari direktorning kasbiy, funksional va xulq-atvor standartlarini direktorning boshqaruv kompetentligini aniqlash bilan uyg'unlashtirish asosida ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ilgari surilgan taklif va mulohazalar, umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash mexanizmining takomillashtirilganligi, baholash jarayonlarini amalga oshirish

uchun o'quv – uslubiy materiallar bilan boyitilgani va maktab direktorlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish faoliyatini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqot natijalari asosida:

maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini obyektiv baholashda direktorning boshqaruv faoliyatini tashkil etish tuzilmasi ta'lim muassasasini boshqarishning tahlil qilish, maqsadlarni belgilash, rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish hamda tartibga solish funksiyalarini maktabda boshqaruv samaradorligini oshirish omili sifatida ifodalash asosida aniqlashtirishga doir takliflardan A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida 2022-2023-yillarda bajarilgan "HR" nomli amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan (*Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 16-yanvardagi 03-33-109-son ma'lumotnomasi*). Natijada maktab rahbar xodimlarini o'quv faoliyatga jalb qilish, boshqaruv sohasiga oid kasbiy ko'nikmasini rivojlantirishga erishilgan;

umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash mezonlari TALIS xalqaro baholash dasturi talablari asosida maktab missiyasini aniqlash, o'quv jarayonini boshqarish, ijobiy ta'lim muhitini targ'ib qilish vazifalarini aniqlashtirish hamda natijalarning shaffofligini ta'minlash asosida direktorning o'zi va pedagogik jamoasi tomonidan baholanishini yo'lga qo'yish orqali takomillashtirishga oid amaliy tavsiyalar "Maktab direktorining boshqaruv kompetensiyasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (*Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 16-yanvardagi 03-33-109-son ma'lumotnomasi*). Bu natija maktab direktorlarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga doir imkoniyatlarini oshirishga xizmat qilgan;

umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash mexanizmi direktorning boshqaruv kompetentligiga ustuvorlik berish asosida liderlik, jamoada ishlash, tahliliy, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, xodimlar motivatsiyasini boshqarish, emotsional intellekt darajasi, boshqaruv nazariyasiga oid bilim va ko'nikmalarini baholash hamda natijalarni toifalash imkoniyatlarini kiritish orqali takomillashtirishga doir amaliy tavsiyalar "Menejerlik o'quv kurslari" namunaviy o'quv reja va dasturining "Inson resurslarini boshqarish", "O'zini-o'zi va o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish" modullari mazmuniga singdirilgan hamda kontent materiallarini ishlab chiqishda foydalanilgan (*Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 16-yanvardagi 03-33-109-son ma'lumotnomasi*). Natijada kurs o'quv modullari kontentlarining mazmunan boyishiga, maktab direktorlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshishiga erishilgan.

umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholashni hisoblash metodikasi baholash mezonlarini direktorning boshqaruv faoliyatiga ta'sir etishiga ko'ra bevosita va bilvosita baholovchi mezonlarga tasniflash va natijaga erishishning murakkablik darajasiga ko'ra baholash talablarini aniq belgilash asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Maktab direktorining

boshqaruv kompetensiyasi” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan va amaliyotga joriy qilingan (*Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025-yil 16-yanvardagi 03-33-109-son ma’lumotnomasi*). Natijada, direktorlarning o‘zini-o‘zi baholash ko‘nikmasini rivojlantirishga hamda boshqaruv faoliyatini baholash amaliyotining mukammallashuviga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 18 ta ilmiy ishlar, shulardan, Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini e’lon qilish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan 4 tasi respublika, 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 149 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

“**Kirish**” qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti, tadqiqotning usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari hamda ularning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Umumiy o‘rta ta’lim maktab direktorlari boshqaruv faoliyatini baholashning nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida tadqiqot muammosiga oid ilmiy-nazariy adabiyotlar tahlili asosida ta’limda boshqaruv faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodologik asoslari, ta’lim muassasasini boshqarishning funksiyalari, maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholashda konseptual yondashuvlar, TALIS xalqaro baholash dasturi mezonlari yoritilgan.

Bugungi kunda maktab direktorlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish, samaradorlikni belgilovchi aniq mezonlarni ishlab chiqish, amaldagi direktorlarning imkoniyatlari va qobiliyatlarini batafsil tahlil qilish imkonini beruvchi baholash mexanizmini amaliyotga joriy etish zaruriyati mavjud.

Xalqaro tajribalar tahlili ta’lim muassasalari rahbarlarining faoliyati samaradorligini baholashning turli xil mexanizmlaridan foydalanish amaliyoti mavjudligini ko‘rsatmoqda. A.S.Krasikov direktorlarni baholash uchun o‘z samaradorligini isbotlagan quyidagi tashkil etish shakllaridan foydalanish mumkinligini ta’kidlaydi: malaka oshirish kurslarida ixtisoslashtirilgan seminarlar o‘tkazish; ta’lim muassasasi rahbarining amaliy faoliyatini baholash; baholash markazlari tomonidan sertifikatlash. Maktab direktorining boshqaruv faoliyatini

baholashning mumkin bo'lgan "mezon"ini tanlashda D.Hargrives tomonidan berilgan maktab sifati ta'rifini asos qilib olish mumkin, u uni "intellektual kapital, ijtimoiy kapital va tashkiliy kapital" kabi uchta komponentning birligida belgilaydi. Bu maktab boshqaruvining sifati ko'rsatilgan kapital turlarini shakllantirishni baholash bilan tavsiflash imkonini beradi.

G.S Abdrahmanov boshqaruv faoliyati samaradorligini belgilangan me'yorlar asosida yuqori sifatlarga erishish darajasi hamda ta'lim tizimi faoliyatining sifat va miqdoriy xususiyatlarining zaruriy ko'rsatkichlarini ifodalovchi, maqsadga erishish darajasi bo'yicha aniqlash muhim deb hisoblaydi. S.T.Turg'unov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ilmiy xulosalariga ko'ra, ta'lim muassasalarining boshqaruv faoliyati samaradorligi – bu boshqaruv qonuniyatlari, usul va metodlari hamda innovatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv faoliyati asosida tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonining natijaviyligi hisoblanadi.

Bizningcha, boshqaruv faoliyat samaradorligi – direktorning ma'lum bir muddatda ta'lim muassasasida erishgan natijalaridir. O'zgarib borayotgan zamonaviy tendensiyalarga ko'ra, direktorlar endi boshqaruvchi bo'la olmaydi. Direktorlar – o'quvchilarning yutuqlarini yaxshilashga e'tibor qaratadigan ta'lim rahbarlari bo'lishlari kerak. Ular maktabdagi ta'lim maqsadlari va ushbu maqsadlarga erishish majburiyatlari atrofida hamkorlik va hamjihatlikni yaratadigan kuch bo'lishlari lozim. Maktab direktori boshqaruv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, uning tobora ortib borayotgan murakkabligi va o'zgaruvchan boshqaruv konteksti tufayli "bir o'lchovli" bo'lishi mumkin emas.

Tadqiqot tahlillar natijasida maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash mexanizmlarini takomillashtirish zarurati quyidagi muammolarning mavjudligi bilan bog'liqligi aniqlandi: jamiyatning umumiy o'rta ta'lim maktablarida yuqori malakali boshqaruv kadrlarga bo'lgan ehtiyojining ortishi bilan maktab direktorlarining kasbiy mahoratini obyektiv baholash mezonlari, ko'rsatkichlari va usullarining ilmiy asoslangan tizimi mavjud emasligi; direktorlar tomonidan bajariladigan boshqaruv vazifalari hajmi va murakkabligining ortishi hamda maktab direktorlari boshqaruv faoliyatini baholashda yangi omillar hisobga olinmaganligi; umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini chuqur, har tomonlama baholash zarurati mavjud lekin, maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash mezonlari ishlab chiqilmaganligi; jamiyatning umumiy o'rta ta'lim maktablarini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoji va bu muammoni hal qilish uchun direktorlarning boshqaruv kompetentligi yetarli emasligi.

Qayd etilgan masalalar umumlashtirilgan tadqiqot muammosini tashkil etadi, uning mohiyati maktab direktorlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini aniqlash, samaradorlikni baholash mezonlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

D.X.Strong tadqiqotlarida maktab direktorlarini baholashning quyidagi standartlarini keltirib o'tgan: yetakchilik, maktabdagi shart-sharoitlar, inson resurslarini boshqarish, tashkillashtirishni boshqarish, hamkorlik va ijtimoiy munosabatlar, kasbiy mahorat.

K.R.Cheemaning davlat va xususiy sektor maktablarida direktorlar faoliyatini baholash bo'yicha tadqiqotida davlat va xususiy sektor maktablari direktorining

faoliyatini o'quvchilarning o'qishida sezilarli yaxshilanishlarga erishish uchun zarur bo'lgan yetakchilik uslublari nuqtai nazaridan baholash asosiy vazifa hisoblanadi. Tadqiqot davomida quyidagi: a) qaysi direktorlar o'quvchilarning yutuqlari uchun o'qitish, o'rganish va kasbiy rivojlanishga yordam beradi? b) qaysi sektorda direktorlar o'qituvchilar bilan shaxsiy va kasblararo munosabatlarni o'rnatadilar? c) qaysi sektor rahbarlari o'z qarorlarini o'qituvchilar, ota-onalar va boshqalar bilan bo'lishadi? kabi savollarga javob izlanadi.

Tadqiqot tahlillari asosida, maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini ta'lim muassasasining boshqaruv samaradorligi qaysi holatda, natijalarga, ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishayotganliklarini aniqlash uchun baholash zarurati aniqlandi.

Har bir direktor pedagogik tizimni boshqarar ekan, undagi muammolar va bu tizimdagi a'zolarining pedagogik-psixologik xususiyatlarini bilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Ular boshqaruv faoliyatida ta'lim muassasasida barcha jarayonlarni tartibga solib turish uchun boshqaruv funksiyalarini mazmun va mohiyatini bilishlari zarur.

Ilmiy-nazariy manbalar mazmuni tahlili shuni ko'rsatadiki, boshqaruv funksiyalari boshqaruv faoliyatining nisbatan alohida sohalari hisoblanadi. Boshqaruvning funksional bo'g'inlari ketma-ket o'zaro bog'liq bo'lgan bosqichlar, ularning to'liq tarkibi yagona boshqaruv siklini – direktorlarning boshqaruv faoliyati tuzilmasini tashkil qiladi.

Tadqiqot davomida ta'lim muassasalarini boshqarishning funksiyalari bo'yicha bir qator tadqiqot ishlari o'rganildi. Boshqarish nazariyasi asoschilaridan biri Anri Fayol XX asrning boshlarida boshqaruvning 5 ta funksiyasi mavjud degan fikrni ilgari suradi. Ular rejalashtirish, tashkil etish, farmoyish berish, muvofiqlashtirish, nazorat. Menejment nazariyasida esa to'rtta funksiya: rejalashtirish, tashkil etish, motivlashtirish va nazorat funksiyalarining ajratilishini hamda ularni birinchi darajali deb hisoblash qabul qilinganligini ta'kidlash lozim. Bunday holatlarda boshqaruv faoliyatining funksional tarkibini aniqlashga vaziyatli yondashuv qo'llaniladi. Boshqaruvda vaziyatli yondashuvning ommalashishi natijasida mutaxassislar boshqaruvning boshqa funksiyalari: maqsadni belgilash, kommunikatsiya, rag'batlantirish kabi funksiyalarni ham alohida ko'rsatishgan. V.S.Lazarev ular orasidan "rejalashtirish, tashkil etish, yetakchilik va nazorat qilish"ni ajratib ko'rsatadi. Ushbu asosiy funksiyalarga V.A.Slastenin "pedagogik tahlil, maqsadni belgilash, tartibga solish"ni ham qo'shadi.

R.X.Djurayev, S.T.Turg'unov, N.Q.Axmedovalar rahbarning ta'lim muassasasidagi boshqaruv faoliyatini yaxshiroq tushunish uchun boshqaruvning funksiya va metodlarini ko'rib chiqish hamda rahbarlarni boshqaruv faoliyatining tarkibiy tuzilishini belgilash maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi. N.Q.Axmedova ijtimoiy psixologik funksiyalarga axborotlar bilan ishlash, tashkilotchilik, ijtimoiylashtirish, qaror qabul qilish kabilarni kiritadi. Axborotlar bilan ishlash turli ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatishdan iborat bo'lib, guruhlar faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonida qo'llaniladi.

Bizningcha, direktor uchun asosiy mehnat predmeti axborotlar bo‘lib, ular asosida qarorlar, ya’ni boshqaruv jarayonining mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Tadqiqotlarni umumlashtirgan holda, umumiy o‘rta ta’lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini tashkil etish tuzilmasini ta’lim muassasasini boshqarishning tahlil qilish, maqsadlarni belgilash, rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish hamda tartibga solish funksiyalari maktab direktorining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish omili sifatida ifodalanishi aniqlandi.

Shuningdek, TALIS xalqaro baholash dasturi talablaridan maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash mezonlarini takomillashtirishda foydalanish baholash mexanizmining shaffofligini ta’minlashi asoslandi. TALIS tadqiqoti ta’lim tizimini maktab jamoasi vakillari ko‘zi bilan ko‘rish imkoniyatini beradi. TALIS o‘quv muhiti va maktablardagi o‘qituvchilarning mehnat sharoitlariga bag‘ishlangan 1-xalqaro so‘rovnoma hisoblanib, maktab muammolarini tahlil qilish orqali maktab boshqaruvi samaradorligini va mas’uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot tahlillari natijasida maktab direktorlari o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash, motivatsiya, ishdan qoniqish va ish sharoitlarini hamda o‘qitish va o‘rganish uchun sog‘lom muhitni shakllantirish orqali o‘quvchilar ta’limini rivojlantirishi, direktorlarning boshqaruv faoliyati o‘qituvchilar samarali bo‘lishi mumkin bo‘lgan maktab sharoitlarini yaratishda muhimligi, maktab direktorlari faoliyatini baholashda direktorlar va o‘qituvchilar nuqtai nazaridan direktorning boshqaruv faoliyati nimani anglatishi haqida ma’lumot to‘plash zarurati aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Umumta’lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash mexanizmlarini takomillashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida umumiy o‘rta ta’lim maktab direktorlari faoliyatini baholash mexanizmlari, natijaga asoslangan baholash yondashuvi, maktab direktorining boshqaruv faoliyatini baholashda samarali maktab direktori xususiyatlari va faoliyat standartlari, shuningdek, direktorlarning boshqaruv faoliyatini baholashni takomillashtirish imkoniyatlari yoritib berilgan.

Hozirgi vaqtda butun dunyoda maktab direktorlarining kasbiy faoliyatini baholash usullari, shuningdek, ularni lavozimga tayinlashda tanlash tartiblari keng o‘rganilmoqda. Negaki, barkamol, mantiqiy va nazariy jihatdan asoslangan baholash tizimining mavjudligi ta’limda kadrlar rivojlanishini boshqarish, yashirin zaxiralarni aniqlash va kamchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi.

O‘tkazilgan tahlillar natijasida maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholashda natijaga asoslangan baholash yondashuvi (Outcome-Based Evaluation Approach) samarali ekanligi aniqlandi. Ushbu yondashuv, direktorning boshqaruv faoliyatini natijalarga asoslanib, ya’ni o‘quvchilarning muvaffaqiyati, ta’lim sifatining yaxshilanishi, o‘qituvchilarning samarali ishlashi kabi faktorlarga qarab baholashni anglatadi.

Maktab direktorining boshqaruv faoliyatini natijaga asoslangan baholash yondashuvi asosida baholashda quyidagi asosiy jihatlar e’tiborga olindi: o‘quvchilarning akademik natijalari; ta’lim sifatining yaxshilanishi; resurslarni boshqarish va taqsimlash; o‘qituvchilar bilan ishlash va ularning motivatsiyasi;

maktabda ijtimoiy-psixologik muhit; innovatsiyalar va yangiliklarga tayyorlik; ota-onalar bilan aloqalar.

Qayd etilgan jihatlar direktorning o'z vazifalarini qanday bajarishini, tizimning umumiy samaradorligini va o'quvchilar hamda o'qituvchilar muvaffaqiyatiga qanday ta'sir ko'rsatganini to'g'ri baholash imkonini beradi.

Tadqiqot tahlillari natijasida samarali maktab direktori faoliyat standartlarini funksional va xulq-atvor standartlariga klassifikatsiyalash asosida samarali direktorlar faoliyatini qanday tashkil etishi aniqlandi. Unga ko'ra direktorlar yuqori standartlar asosida barcha o'quvchilar uchun akademik muvaffaqiyat haqidagi tasavvurni shakllantirishga e'tibor qaratadi; xavfsizlik va hamkorlik ruhi ustun bo'ladigan ta'lim uchun qulay iqlim yaratadi; o'qituvchilar va boshqa xodimlar maktab maqsadlarini ro'yobga chiqarishda o'z hissalarini qo'shishlari uchun boshqalarda yetakchilikni rivojlantiradi; o'qituvchilarni sifatli ta'lim berishi va o'quvchilarga o'z imkoniyatlarini maksimal darajada oshirishlari uchun o'qitishni takomillashtiradi; maktabni yaxshilash uchun inson resurslari, ma'lumotlar va jarayonlarni boshqaradi.

Tadqiqot davomida o'rganilgan standartlar hamda natijaga asoslangan baholash yondashuvi asosida umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholashning takomillashtirilgan mexanizmi ishlab chiqildi (1-rasmga qarang).


Mazkur mexanizmning tarkibi maqsad, mazmun, tashkil etish, baholash va natija hamda qayta aloqani o'z ichiga oladi. Dastlab, umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash maqsadi belgilangan.

Ushbu mexanizmning mazmun qismida baholash mezonlari ko'rsatilgan. Ular: umumiy o'rta ta'lim muassasasi bitiruvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha tayyorgarligi va ta'lim sifati darajasi; maktab o'quvchilarining bilim darajasi; o'quvchilarning chet tilini bilish darajasi; o'qituvchilarning sifat (salohiyat) ko'rsatkichi; o'qituvchilarning chet tilini bilish darajasi; direktorning boshqaruv faoliyati bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma natijalari; maktabda ma'naviy-ma'rifiy, o'quv – tarbiyaviy muhit yaratilganligi; maktab direktorining boshqaruv kompetentligi.

Mazkur mezonlar direktorning faoliyatini baholashda bevosita va bilvosita ta'sir qiladi, ya'ni direktorning boshqaruv faoliyati bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma natijalari va maktab direktorining boshqaruv kompetentligi mezonlari shaxs bilan bog'langan bo'lib, direktorni bevosita baholashga imkon beradi. Qolgan mezonlar esa direktor faoliyatini to'g'ridan-to'g'ri aks ettirmasada, uning faoliyatini baholashda bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Mexanizmning tashkil etish qismida ma'lumotlarni to'plash, tezkor qayta ishlash, umumlashtirish, ma'lumotlar bazasini shakllantirish vazifalari amalga oshiriladi. Baholash va natija qismida ma'lumotlarni tahlil qilish va baholash hamda toifalash ishlari bajariladi, natijalarga ko'ra qaytar aloqa ta'minlanadi.

Ushbu mexanizmning maxsus belgilangan qismlari bu yo'nalishdagi oldingi mexanizmdan farqini, aynan qaysi qismi takomillashtirilganligini ko'rsatadi.



1-rasm. Umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholashning takomillashtirilgan mexanizmi

Mazkur mexanizmga muvofiq, umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholashni hisoblash metodikasi baholash mezonlari natijasiga erishishning murakkablik darajasiga ko'ra baholash talablari va baholash shkalasini aniq belgilash asosida takomillashtirilgan. Unga ko'ra:

1. Umumiy o'rta ta'lim muassasasi bitiruvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha tayyorgarligi va ta'lim sifati darajasi: ushbu mezon uchun 10 ball ajratilgan bo'lib, u 2 ta shaklda baholanadi: 1) bitiruvchilar tomonidan OTMlarga kirishda to'plagan o'rtacha ballari umumiy 5 ballik shkalada 150 balldan maksimal ballgacha – 5, 100 balldan 150 ballgacha – 3, 56,7 balldan 100 ballgacha – 2, 56,7 dan past bo'lsa 0 ball beriladi. 2) bitiruvchilarning OTMga o'qishga kirganlar salmog'i umumiy 5 ball ajratilgan. Bunda maktab bitiruvchilarining 80% dan 100 % gacha oliy ta'lim muassasalariga qabul qilinsa maksimal 5 ball, 60% – 79%gacha 4 ball, 40% – 59%gacha – 3 ball, 20% – 39% uchun 2 ball, 1% – 19%gacha bo'lsa 1 ball bilan baholanadi.

2. Maktab o'quvchilarining bilim darajasi: bu mezon uchun 14 ball ajratilgan bo'lib, bunda: 1) maktab o'quvchilarining fanlarni o'zlashtirishi baholanadi, ya'ni 2,6 – 3,5 gacha umumiy 5 balldan 1 ball; 3,6 – 4,5 gacha 3 ball; 4,6 – 5 gacha maksimal 5 ball. 2) milliy reyting natijalariga ko'ra umumiy 2 ball bilan, agar maktab viloyat bo'yicha 10 talikka kirgan bo'lsa maksimal 2 ball, viloyat bo'yicha 100 talikka kirgan bo'lsa 1 ball, viloyat bo'yicha maktablar ro'yxatida 100 talikdan pastda bo'lsa 0 ball bilan baholanadi. 3) fan olimpiadalarida g'oliblik uchun umumiy 7 ball ajratilgan bo'lib, bunda maktab o'quvchilarining turli fanlardan olimpiadalarda ishtirok etishi va turli xil darajadagi g'oliblikni qo'lga kiritishi mumkinligini inobatga olib, umumiy 7 ballni 4 ta punkt natijalari bilan to'plash talab etiladi: tuman g'olibligi uchun 1 ball, viloyat g'olibligi 1,5 ball, respublika – 2 ball, xalqaro fan olimpiadasi g'olibligi uchun 2,5 ball belgilanadi.

3. O'quvchilarning chet tilni bilish darajasi uchun 10 ball ajratilgan bo'lib, undan 5 ball maktab o'quvchilari umumiy foizining (1) chet tilni bilish bo'yicha sertifikatga egaligi uchun, hamda 5 ball (2) xorijiy tilni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktab tanlovida tuman, viloyat va respublika bosqichlarida g'olibligi uchun beriladi.

4. O'qituvchilarning sifat (salohiyat) ko'rsatkichi. Maktab direktorining muhim boshqaruv vazifalaridan biri maktab o'quvchilarini salohiyatli o'qituvchilar bilan ta'minlash, sifatli kadrlarni ishga yollash, o'qituvchilar jamoasini kasbiy rivojlantirish ekanini hisobga olgan holda, ushbu mezon uchun 20 ball ajratilgan, bunda: 1) maktabning toifaga ega o'qituvchilari salmog'i uchun umumiy 8 ball to'plash mumkin. 2) o'qituvchilarning respublika miqyosidagi belgilangan tanlovlarda g'olibligi uchun 12 ball bilan baholanishi mumkin.

5. O'qituvchilarning chet tilni bilish darajasi. Bunda maktab o'qituvchilarining chet tilni bilish bo'yicha sertifikatga egalik salmog'i jihatidan umumiy 3 ball to'plash imkoni mavjud.

6. Direktorning boshqaruv faoliyati bo'yicha o'tkaziladigan so'rovnoma natijalari. Ushbu mezon 2 ta so'rovnoma orqali umumiy 4 ball bilan baholanadi. 1) maktab pedagogik jamoasining direktor faoliyatiga qo'ygan bahosi maksimal

2 ball; 2) direktorning maktabda boshqaruvni tashkil etish bo'yicha o'ziga qo'ygan bahosi maksimal 2 ball.

7. Maktabda ma'naviy-ma'rifiy, o'quv –tarbiyaviy muhit yaratilganligi. Bu mezon direktorning maktabda xavfsiz, sog'lom, ijobiy ta'lim muhitini hamda o'quvchilarni o'z iste'dod va qobiliyatlarini turli xil musobaqa va tanlovlarda namoyon etishlari uchun imkoniyat yarata olganlik faoliyati bilan bog'liq bo'lib, umumiy 14 ball ajratiladi. Unda maktab direktorlari o'quvchilarining musobaqa, festival va tanlovlarda tuman, viloyat, respublika kesimida olgan yutuqlari bo'yicha baholanadi. Har bir belgilangan tanlov uchun umumiy ballar ajratilgan bo'lib, agarda maktabda har uchala hudud kesimida ham g'olib bo'lgan o'quvchilari bor bo'lsa, eng yuqori umumiy ball beriladi.

